

16-01/123
28.12.2024 y.

“TASDIQLAYMAN”

Viloyat hokimi v.b.



A. Boboyev
A. Boboyev
2024-yil ___-dekabr

Viloyat hokimligida o‘tkazilgan apparat yig‘ilishi
BAYONI

2024-yil 24-dekabr

Samarqand shahri

Raislik qiluvchi: A. Boboyev – viloyat hokimi v.b.

Ishtirok etganlar: Viloyat hokimining o‘rinbosarlari, guruh rahbarlari, kotibiyat mudirlari, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, shahar va tumanlar hokimliklari mas’ul xodimlari hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar rahbarlari
(ro‘yxat bo‘yicha).

KUN TARTIBI:

1. “Urgut” EIZ va KSZ hamda YTSZlarda 2024-yilda ishga tushirilishi belgilangan loyihalarda amalga oshirilgan ishlar.

2. Boshqa masalalar.

1-masala

(Boboyev, Xaydarov, Kamarov, Madarov, Mirzayev, shahar va tuman hokimlari, Boboyev)

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan yig‘ilish qaror qiladi:

1. “Urgut” erkin iqtisodiy zonasida 2024-yilda ishga tushirilishi belgilangan loyihalarni qisqa muddatlarda ishga tushurish maqsadida “Urgut” EIZ direksiyasi (G‘.Madarov), tijorat banklari rahbarlari, tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda:

bir oy muddatda investitsiyalarni o‘zlashtirmagan va qurilish ishlarini boshlamagan 13 ta loyiha bo‘yicha holatni joyida o‘rganib, o‘rnatilgan tartibda

tadbirkorlarga amaliy yordam berish va loyihalarni ishga tushirish choralari ko'rilishini;

ishlab chiqarish hajmini kamaytirgan yoki umuman mahsulot ishlab chiqarmagan, shuningdek, mahsulot eksportini amalga oshirmagan korxonalar bilan birma-bir shug'ullanib, **bir oy muddatda** faoliyatini o'rnatilgan tartibda tiklash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilishini;

uch oy muddatda sanoat zonalaridagi bo'sh yer maydonlariga istiqbolli loyihalarni topib, joylashtirish choralari ko'rilishini ta'minlasin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5088-son qarori ijrosini sifatli ta'minlash maqsadida Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi boshlig'i (**D.Musinov**), Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish yagona direksiyasi (**A.Kamarov**), Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i (**S.Boboyev**), tuman va shahar hokimlarining ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda investitsiya bo'yicha o'rinbosarlari bilan birgalikda **bir oy muddatda**:

2022-2023-yillar davomida qurilish ishlari boshlanmagan jami 292 ta loyihalarni to'liq o'rganib chiqib, samarasiz loyihalarning yer maydonlarini o'rnatilgan tartibda zaxiraga qaytarish bo'yicha sudga davo arizalari kirib, qonun xujjatlarida o'rnatilgan tartibda qaytarilgan er maydonlarini o'rnatilgan tartibda qayta auksionga chiqarilishini;

faoliyati to'xtab qolgan 15 ta loyihani faoliyatini tiklash bo'yicha banklar bilan hamkorlikda tadbirkorlarga o'rnatilgan tartibda amaliy ko'mak berilishini;

bugungi kunda mavjud bo'sh yer maydonlariga istiqbolli loyihalarni joylashtirish choralari ko'rilishini ta'minlasin.

3. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (**B.Mirzayev**) tegishli mas'ul korxonalar va tashkilotlar hamda shahar va tuman hokimliklari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Iqtisodiyotda Davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son qarori talablari asosida auksion savdolari to'xtatilgan jami 107,6 gektar yer maydonini muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlash maqsadida 2025-yil viloyat mahalliy byudjeti va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan birinchi navbatda zarur bo'lgan sanoat zonalariga mablag' ajratish yuzasidan viloyat hokimiga taklif kiritsin.

4. Viloyat Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (**L.Rustamov**), viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (**B.Jo'rayev**), Narpay tumani hokimi (**Sh.Buranov**) xorijiy

investorlar tomonidan Narpay tumanida joylashgan kichik sanoat zonasiga joylashtirilishi rejalashtirilgan maishiy kir yuvish kukuni ishlab chiqarish loyihasining ekologiyaga hamda atrof-muhitga ta'sir yuzasidan ilmiy asoslangan ma'lumotlarni viloyat hokimiga kiritilishini ta'minlasin.

2. Boshqa masalalar

(Boboyev, Abilov, Xudayberdiyev, Tuxtayev, Shukurov, Qobilov, Xamrayev, Rahmatullayev, Xushbakov, Mirzayev, shahar va tuman hokimlari, Boboyev)

5. Viloyat hokimligi axborot tahlil guruhi (**Q.Xushbakov**) bir kun muddatda viloyat hokimi o'rinbosarlari, boshqarma, tashkilot rahbarlari hamda shahar va tuman hokimlarining taqdimot o'tkazish jadvalini ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlasin.

6. Shahar va tuman hokimlari, ularning barcha o'rinbosarlari tasdiqlangan grafiklar asosida 2025-yilda o'z hududini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda hamda Prezident qarorlari, farmonlari, videoselektor yig'ilishlarida berilgan topshiriqlar, shu jumladan, 2024-yil 29-noyabrdagi PQ-407-son qarori ijrosi yuzasidan amalga oshiradigan ishlar bo'yicha viloyat hokimi huzurida taqdimot o'tkazilishini ta'minlasin.

7. Shahar va tuman hokimlari taqdimot yakunlari bo'yicha **uch kun muddatda** o'z hududida 2025-yilda amalga oshiradigan ishlari yuzasidan "Yo'l xarita" tayyorlab, tasdiqlash uchun viloyat hokimiga kiritsin.

8. Viloyat hokimligi ijro nazorati bo'limi (**F.Mamatqulov**) tasdiqlangan "Yo'l xarita"ga asosan nazorat-reja ishlab chiqib, platformaga kiritib, ijrosi yuzasidan doimiy ma'lumot viloyat hokimiga kiritib borsin.

9. Viloyat hokimi o'rinbosarlari (**F.Abilov, A.Shukurov, Sh.Xudayberdiyev, X.Tuxtayev, R.Qobilov, Z.Saidova, J.Xaydarov, B.Qodirov, O.Xamrayev**) komplekslari tarkibidagi har bir boshqarma va tashkilotning "Yo'l xarita"si va uning ijrosi bo'yicha "Nazorat rejasi"ni ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlasin.

10. Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (**B.Raxmatullayev**) viloyat boshqarma va tashkilot rahbarlari, shahar va tuman hokimlarining taqdimotini sifatli va o'z vaqtida tashkil etish, unda viloyat hokimi o'rinbosarlarining to'liq ishtirok etishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

11. Viloyat Transport boshqarmasi (R.Tojiyev) 10 kun muddatda:

avtobus qatnovlarni ish jadvaliga mos ravishda boshlash va tugatilishi, oraliq bekatlarga kelish va ketish vaqtlariga rioya qilinishi hamda belgilangan harakat intervaliga rioya etilishini;

viloyatga olib kelingan elektrobuslar yo'nalishlarini brutto kontrakt asosida tashkil etilishini;

avtobuslar belgilangan bekatlardan tashqari boshqa joylarda asossiz ravishda to'xtamasligini ta'minlasin.

12. Viloyat hokimi o‘rinbosarlari (**X.To‘xtayev, R.Qobilov**), viloyat Madaniyat boshqarmasi (**O.Xayitov**), Samarqand shahri hokimi (**F.Umarov**) bilan birgalikda **bir kun muddatda** joriy yil 26-dekabr kuni “Prezident archasi” tadbiri bo‘lib o‘tadigan viloyat Musiqali drama teatri hamda “Oltin Samarqand” bazmgohidagi barcha tashkiliy ishlarni yakunlasin.

13. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (**R.Mamatov**), tuman va shahar hokimliklari bayram tadbirlarida qatnashadigan 569 nafar (*ro‘yxat asosida*) bolalarni joriy yil 26-dekabr kuni “Prezident archasi” tadbiriga qatnashish uchun Samarqand shahriga xavfsiz va markazlashgan (avtobusda) holda kelib-ketishlarini ta‘minlasin.

14. Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (**S.Zayniyev**), Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (**L.Rustamov**) bayram tadbirlari o‘tadigan bazmgohda dasturxonga tortiq etiladigan mahsulotlarni sanitariya-gigiyena talablaridan kelib chiqqan holda tekshirish hamda tadbirlar bo‘ladigan manzillarda malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish maqsadida xodimlar navbatchiligini tashkil etsin.

15. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (**R.Mamatov**), viloyat IIB YHXB (**Sh.Boyxo‘rozov**), Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi (**A.Umarov**), viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (**N.Kadirov**) bayram tadbirlari bo‘lib o‘tadigan manzillarda jamoat tartibi, yo‘l harakati xavfsizligi va yong‘in xavfsizligini ta‘minlansin.

16. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Samarqand hududiy filiali (**E.Mamasoliyev**), “Hududgaz Samarqand” gaz ta‘minoti filiali (**A.Muxammadiyev**) bayram tadbiri o‘tadigan obyektlarda elektr energiyasi va isitish tizimini uzluksiz ishlashini ta‘minlasin.

17. Viloyat hokimining o‘rinbosari (**X.Tuxtayev**), Ijtimoiy himoya milliy agentligining viloyat hududiy boshqarmasi (**X.Nazarov**), viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (**S.Zayniyev**), viloyat Madaniyat boshqarmasi (**O.Xayitov**) viloyat bolalar uyining 46 nafar tarbiyalanuvchilari va Mehrli maktabning 29 nafar tarbiyalanuvchilari uchun muassasalarning o‘zida yuqori saviyada bayram tadbirini tashkil qilinishini hamda “Prezident sovg‘asi”ni joriy yilning 26-dekabr kuniga qadar muassasalarga tarqatilishini ta‘minlasin.

18. Viloyat hokimining Axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (**M.Mirzayev**), viloyat teleradiokompaniyasi (**M.Ixtiyorov**), “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari birlashgan tahririyati (**F.Toshev**), “Ovozi Samarqand” gazetasi (**B.Raxmonov**)ga “Prezident archasi” bayram tadbirini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilishini ta‘minlasin.

19. Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi (**M.Kuvandikov**) tuman hokimlari bilan birgalikda **2 kun muddatda** 875,6 gektar yer maydonlarini o‘rnatilgan tartibda zaxiraga qaytarish bo‘yicha sudga davo arizalari kirib, qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish choralarini ko‘rsin.

20. O‘zdavyerloyiha DILI (**S.Bobonazarov**) tuman hokimlari bilan birgalikda **2 kun muddatda** viloyatdagi 1 764,2 gektar yer maydonlari uchun yig‘ma jildlar shakllantirsin hamda viloyat hokimligiga taqdim etilishini ta‘minlasin.

21. Viloyat hokimining o‘rinbosari (**A.Shukurov**) “Fuqarolar tashabbusli byudjeti” dasturi doirasida g‘olib deb topilgan loyihalarni qurilish-ta‘mirlash ishlarini o‘z vaqtida yakunlamaganligi sababli buyurtmachi “Yagona buyurtmachi xizmati” DUK rahbari A.Ilmuratovga nisbatan qonun hujjatlarida o‘rnatilgan tartibda “**hayfsan**” intizomiy jazo chorasi qo‘lanilishini ta‘minlasin.

22. Viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” DUK (**A.Ilmuratov**) “Fuqarolar tashabbusli byudjeti” dasturi doirasida g‘olib bo‘lgan loyihalarda qurilish ishlarini jadallashtirish maqsadida:

“Samarqand mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati” DM (**S.Mamatqulov**) bilan birgalikda **bir oy muddatda** “Tashabbusli byudjeti” dasturi 2024-yil 1-mavsumida g‘olib bo‘lgan obyektlarda qurilish ishlarini yil yakuniga qadar to‘liq yakunlab, o‘rnatilgan tartibda obyektlarni foydalanishga topshirilishini;

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ viloyat filiali (**E.Mamasoliyev**), “Samarqand suv qurilish invest” DM (**V.Raximov**) bilan birgalikda **ikki oy muddatda** “Tashabbusli byudjet” 2-mavsumida g‘olib bo‘lgan obyektlarda qurilish-montaj ishlarini yakunlab, o‘rnatilgan tartibda obyektlar foydalanishga topshirilishini ta‘minlasin.


23. Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi (**M.Kuvondiqov**) tuman hokimliklari bilan birgalikda bir hafta muddatda 1 312,3 gektar yer maydonini “Yerelektron” ATT platformasiga tegishli tashkilotlar bilan kelishgan holda qonun xujjatlarida o‘rnatilgan tartibda kiritilishini ta‘minlasin.

24. Viloyat hokimi o‘rinbosari (**O.Xamrayev**), tuman va shahar hokimlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi kelishuvlarning ijrosini so‘zsiz ta‘minlash va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-112-son qaroriga asosan 2025-yil yanvar oyida Xitoy Xalq Respublikasiga rejalashtirilayotgan tashrifga hozirdan puxta tayyorgarlik ko‘rgan holda aniq chora-tadbirlar belgilab, aniq natijalarga erishish choralari ko‘rsin.

25. Viloyat eksporti o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 125 foizni tashkil etgan bo‘lsada, Nurobod tumanida yilning mos davriga nisbatan 62 foizga pasayganligi Nurobod tumani hokimi S.Berdiqulovga ko‘rsatib o‘tilsin hamda **3 kun muddatda** eksport reja ko‘rsatkichini to‘liq bajarilishini ta‘minlasin.

26. Mazkur yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

**Yig‘ilish bayonini
rasmiylashtirdi**



E.Jonibekov